



Til va adabiyot.uz

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching» (e-mail:tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>

Bahor keldi seni so'roqlab...

*Salqin saharlarda, bodom gulida,
Binafsha labida, yerlarda bahor.
Qushlarning parvozi, yellarning nozi,
Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor...*

*Qancha sevar eding, bag'rim, bahorni,
O'rik gullarining eding maftuni.
Har uyg'ongan kurtak hayot bergan kabi
Ko'zlaringga surtib o'parding uni.*

*Mana qimmatligim, yana bahor kelib,
Seni izlab yurdi, kezdi sarsari.
Qishning yoqasidan tutib so'radi seni,
Ul ham yosh to'kdi-yu, chekindi nari.*



ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Til va adabiyot.uz

Bosh muharrir

Nargiza BERDIYEVA

Tahrir hay'ati:

Dilshod Kenjayev
Nizomiddin Mahmudov
Yorqinjon Odilov
Jabbor Eshonqulov
Baxtiyor Daniyarov
Abdurahim Nosirov
To'liqin Saydaliyev
Bamo Buranova
Zulxumor Mirzayeva
Ozoqboy Yo'ldoshev
Bahodir Jovliyev
Salima Jumayeva
Qayum Baymirov
Manzar Abdulxayrov
Alijon Safarov
Madina Nuriddinova
Latifa Xudayqulova
Bamo Kadirova
Nargiza Mirzayeva
Guli Shukurova
To'maris Butunbayeva
Ramziddin Abdusatorov
Okila Turakulova
Yuldosh Raxmatov
Ramziddin Abdusatorov
Feruz Manukyan

Axborot hamkorimiz:



Muharrirlar:

Lutfullo JO'RAYEV
Bibimaryam RAHMONOVA
Oydin SHUXRATOVA

Sahifalovchi:

Mahliyo ABDUQODIROVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.
e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com



Ilmiy-metodik elektron jurnal

M U N D A R I J A

DOLZARB MAVZU

Xamza ElliyeV. O'quvchilar bilimini baholashda yangi yondashuvlar tahlili..... 3

TADQIQOT

| | |
|--|----|
| Sanobar Ulliyeva. O'tkir Hoshimov qissalarida obraz yaratuvchi semantik birliklar..... | 6 |
| Shohzoda Tursunboyeva. O'zbek adabiyotida epik syujet tadriji..... | 8 |
| Sitorabonu Ataulayeva. Adabiyotda ayol xarakteri..... | 10 |
| Atadjan Djumashev. Hozirgi o'zbek adabiy tiliga chet tillaridan o'zlashgan qurilishterminlari..... | 13 |
| Shahodat Raxmatullayeva. Ona tili darslarida o'quvchilarni savol o'quv topshirig'i ustida ishlashga o'rgatish..... | 16 |
| Dildora Nizomiddinova, Nozima Inomova, Sitora Qaimova. Farg'ona vodiysi tarixiy antropotoponimlari xususida..... | 18 |
| Mahliyo Elboyeva, Yarmuxammad Madaliyev. O'zbek adabiyotini o'qitishda zamonaviy yondashuvlarning ustuvor yo'nalishlari..... | 21 |
| Sanjar Mavlyanov. O'zbek tili diplomatik terminlarining takomillashuvi masalalari..... | 23 |
| Lola Ibragimova. Tibbiyotga oid ingliz va o'zbek maqollarining kognitiv asoslari..... | 27 |
| Iroda Ishonxanova. Alisher Navoiy hayoti va ijodini o'qitishda tarixiy va zamonaviy manbalarning ahamiyati..... | 30 |
| Doston Abulxayirov. Teaching pragmatics in the digital age: an investigation of the effectiveness of computer-mediated communication in developing pragmatic competence..... | 33 |
| Malika Matkarimova. Using electronic dictionary for reading skills..... | 35 |
| Umida Muxammadiyeva. Features of historical and current state of Uzbek English intercultural literary relations..... | 37 |
| Ramina Shukurova. Linguocultural specificity of phraseological units in the process of teaching languages..... | 41 |
| Nargiza Xodjaeva. Интерактивные современные методы преподавания русского языка как иностранного..... | 43 |
| Umida Ulashева. Совершенствование методологии обучения иностранному языку посредством художественной литературы в начальном образовании (на примере английского языка..... | 45 |
| Munira Shodmonova. Изучение китайских афоризмов в контексте патриотического воспитания..... | 47 |
| Saodat Raxmatova. Актуальность формирования навыков адеического письма у студентов технических вузов..... | 50 |
| Saule Turlanova. Формирование мотивации самообразования у студентов в системе высшего профессионального образования..... | 51 |
| Mexribon Shamiddinova. Анализ учебных пособий для преподавания | |

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 338/6-sonli qarori bilan *Filologiya* hamda *Pedagogika* fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrdir.
<https://oak.uz/pages/4802>

| | |
|-----------------------|----|
| КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА..... | 53 |
|-----------------------|----|

TAHLIL

| | |
|--|----|
| O'tkir Abdunazarov. Esse janri va Nosir Fozilov ijodi..... | 56 |
| Sardor Baxriddinov. G'afur G'ulom asarlaridan kelib chiqadigan huquqbuzarlik holatlarining bayoni..... | 60 |
| Alimardon Ergashev. Said Ahmad "Taqqdir, taqdir, muncha beshafqatsan!" hikoyasini blum taksonomiyasi orqali o'rganish..... | 61 |
| Nargiza Mirzayeva. Mediada bolalar uchun kontent yaratish tamoyillari..... | 64 |
| Shohinur Rahmataliyeva. "Alpomish" dostonida Barchin obrazining o'rganilishi..... | 66 |
| Amira Ibatova. Non bilan bog'liq leksemalar tahlili..... | 68 |
| Nigora Abdusalomova. "Zevaxon" dostonining o'rganilishi..... | 70 |
| Normat Yuldashev. Cho'lpon she'riyatida poetik tilning xalqchillashuvi..... | 72 |
| Gulhayo Isabayeva. "Quyoshim – enam" qissasida personajlar sisitemasi..... | 75 |
| Nazokatxon Tojibayeva. Jamiyatda xotin-qizlarning rolini kuchaytirishga xizmat qiluvchi qaror va farmonlar hamda ularning ijtimoiy ahamiyatligi..... | 76 |

PEDAGOGIKA

| | |
|---|----|
| Dilbar Ibragimova, Malika Muxamadiyeva. Xorijiy tillarni o'qitishning ta'lim tizimida tutgan o'rni va o'qitishning nazariy mezonlari..... | 79 |
| Maysara Axmedova. Hadislarda ekologik tarbiya masalalari..... | 82 |
| Mohigul Fozilova. O'zbek tili ta'limi jarayonida talabalarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish metodikasi..... | 86 |
| Adash Rustamova. Pedagogical approaches and diagnostics of teching in higher education..... | 88 |

METODIK TAVSIYA

| | |
|---|-----|
| Nilufar Abidova. Inklyuziv ta'lim sharoitida olib boriladigan pedagogik faoliyatning pedagogik imkoniyatlari..... | 92 |
| Nilufar Turg'unova. Ona tili ta'limida loyiha texnologiyasidan foydalanishga oid mavjud holat tahlili..... | 94 |
| Surayyo Inomjonova. Fantastik asarlar orqali o'quvchilarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish usullari..... | 98 |
| Zamira Yuldasheva. tili ta'limida loyiha texnologiyasidan foydalanishga oid mavjud holat tahlili..... | 101 |

TILSHUNOSLIK

| | |
|--|-----|
| Umidaxon Ahmadova. Perifraza va frazeologik birliklar..... | 104 |
| Ezoza Hazratqulova. Xorijiy tillarni o'qitish metodikasi psixolingvistikaning ahamiyati va nutq faoliyati turlari..... | 107 |
| Gulshoda Ruziyeva. Sotsiopragsmatik tahlilda nutqiy aktlarning o'rni..... | 111 |
| Nargiza Aliyeva. Evfemizm va ulardan foydalanish asoslari..... | 112 |
| Shohsida Eshbo'tayeva. Til tarkibiga musiqa terminlarining ta'siri: dunyo tilshunosligi misolida..... | 114 |
| Nigina Axmedova. Til va madaniyatning o'zaro aloqasi..... | 117 |
| Sarvinov Mardonova, To'liqin Asadov. Ayrim muallif nutqi neologizmlarining leksikografik talqini xususida..... | 119 |
| Lobar G'aniyeva. Davlat boshqaruvi terminlarini tematik tasniflash nazariyasi..... | 122 |
| Manzura Ernazarova. Masofiy ta'lim jarayonida o'qituvchilarning axborot-kommunikatsiya kompetentsiyasini rivojlantirish..... | 124 |
| Maxfuza Axmadjonova. O'zbek tilshunosligida matn muammosining o'rganilishi..... | 126 |
| Sadoqat Samandarova. Evfemik frazeologizmlar tushunchasi va uning o'rganilish tarixi..... | 128 |
| Dilzodaxon Saydaliyeva. O'zbek struktur tilshunosligining rivojida professor Sh.Iskandarovaning o'rmi..... | 130 |
| Dilara Dospanova. Til va madaniyatning o'zaro ta'sirida antroponimlar..... | 133 |

KICHIK TADQIQOT

| | |
|---|-----|
| Intizor Abdujabborova. Sirojiddin Sidqiy Xondayliqiy "Sad Irshodi Mullo Sidqiy Xondayliqiy" va "Zarbulmasali Sidqiy" asarlarining o'rganilishi..... | 135 |
| Shohista Abduqodirova. Ramziy-majoziy ma'no asosida axborot yetkazish..... | 138 |
| Zilola Mirqodirova. The role of pronunciation for english students..... | 142 |

Sarvinoz MARDONOVA,
Buxoro davlat universiteti, o'zbek tilshunosligi
va jurnalistika kafedrasida o'qituvchisi;
To'liqin ASADOV,
Buxoro davlat universiteti, o'zbek tilshunosligi
va jurnalistika kafedrasida dotsenti, f.f.n.

AYRIM MUALLIF NUTQI NEOLOGIZMLARINING LEKSIKOGRAFIK TALQINI XUSUSIDA

Annotatsiya: maqolada neologizm va u bilan bog'liq individual nutq neologizmlari, ularning yuzaga kelish mezonlari yoritilgan. Badiiy asarda leksik neologizmlar, neologizm-semema, affiksatsiya, kompozitsiya usulidagi individual neologizmlar, juft va takror shakldagi individual nutq neologizmlari, neologizm-semema, frazeologik (ideomatik) individual neologizmlar haqida fikr yuritilgan

Kalit so'zlar: *neologizm, individual nutq neologizmlari, leksik neologizmlar, neologizm-lexsema, neologizm-semema, affiksatsiya usulidagi individual nutq neologizmlari, kompozitsiya usulidagi individual nutq neologizmlari, juft va takror shakldagi individual nutq neologizmlar, frazeologik individual nutq neologizmlar.*

Аннотация: в статье освещена и индивидуальные речевые неологизмы, критерии их возникновения. В ней речь идет о лексических фразеологизмах, о неологизмах-лексемах, об индивидуальных речевых неологизмах, в методе аффиксации, о речевых неологизмах в композиционном методе, об индивидуальных речевых неологизмах в парной и повторной формах, о фразеолого-индивидуальных неологизмах речи.

Ключевые слова: *неологизм, индивидуальные речевые неологизмы, лексические неологизмы, неологизм-лексема, неологизм-семема, индивидуальные речевые неологизмы в методе аффиксации, индивидуальные речевые неологизмы в методе композиции.*

Annotation: the article is dedicated to the description of neologism and individual speech neologisms related to the neologism, and their formation criteria. Views on lexical neologisms, neologism-lexeme, individual speech neologisms in the affixation method, individual speech neologisms in the compositional method.

Key words: *neologism, individual speech neologisms, lexical neologisms, neologism-lexeme, individual speech neologisms in the affixation method, individual speech neologisms in the compositional method, combined and repeated form individual speech neologisms, phraseological individual speech neologisms.*

Kirish. Mahorati ijodkorlar poetik individuallikka alohida ahamiyat berganliklari, bunda tilning fonetik, leksik-grammatik birliklaridan o'rinli foydalangan holda badiiylikni ta'minlashdagi mahorati, shuningdek, o'z individual uslubiga egaligi bilan har zamon va har makonda o'z o'quvchilari auditoriyasiga ega bo'lib kelgan. Ijodkor individualligi – muallif nutqi neologizmlari til birliklarining imkoniyatlari bilan bog'liq. Iqtidorli ijodkor tom ma'noda mohir tilshunos hamdir. Til sezgirligi yuqori, til bilimdoni bo'lgan yozuvchi va shoirlarning asarlari o'qishli bo'ladi, mangu yashaydi. Vaholanki, til tafakkurning quroli bo'lishi bilan birga, til boyligi tafakkur boyligi hamdir. Aytmoqchimizki, har bir xalq tafakkurining kengligi uning tili bilan belgilanar ekan, bunda yangi-yangi paydo bo'layotgan til va nutq birliklari, so'zning ma'no imkoniyatlarining taraqqiyoti[1], har bir til lug'at qatlamining miqdor va sifat jihatdan takomili bunda muhim rol o'ynaydi.

Umumiy tilshunoslikda, ma'lumki, "individual uslub", "individual nutq", "muallif neologizmlari" kabi atamalar tez-tez qo'llanib turadi. Mazkur atamalar individual nutq neologizmi bilan aynan bir hodisa emas. Individual uslub "individual nutq neologizmi"dan kengroq tushuncha. Individual nutq neologizmlari

manbalarda "muallif neologizmlari" sifatida ham talqin etiladi. [2;3;4;9].

Badiiy matnning lingvopoetik tahlili jarayonida tadqiqotchi oldida ijodkor qalamiga mansub individual jihatlar, ijodkor individual uslubiga xos bo'lgan struktural o'zgarishlar, ijodkorning individual nutq uslubini ochib berish vazifasi ham ko'ndalang turishi tabiiy. O'zbek lingvopoetikasida bu borada, ya'ni badiiy uslubda individuallik, uning ko'rinishlari borasida ayrim ijodkorlar misolida u yoki bu darajada tadqiqotlar amalga oshirilgan[5;6;8]. Lekin mazkur tadqiqotlar ijodkor individualizmi (individual neologizmlar)ning o'rganilishini ma'lum bir foizinigina tashkil etadi, xolos. Qolaversa, bugungi kun matn tilshunosligida badiiy matnning antroposentrik talqini borasidagi tadqiqotlarning ommalashib borayotgani ham muallif nutqi neologizmlarining chuqurroq tahliliga ehtiyoj tug'dirmoqda.

Asosiy qism. Biz quyida Muhammad Yusuf, Usmon Azim, Farida Afro'z kabi iste'dodli ijodkorlar alohida e'tibor bergan hamda mavjud lug'atlarda [7] o'z ifodasiga ega bo'lmagan ayrim mualliflik nutqi neologizmlarni kuzatamiz, shuningdek, leksikografik belgisini ifoda etib o'tamizki, yangi avlod lug'atlarining

rivoji xuddi shu hodisa, ya'ni muallif nutqi neologizmlari, ularning sifat va miqdori bilan ham uzviy bog'liq.

-boz affiksi otlarga qo'shilib, asosdan anglashilgan narsa yoki hodisa bilan faol shug'ullanadigan, unga qiziqadigan, juda berilgan shaxs kabi ma'nolarni beruvchi sifatlar yasaydi. Muhammad Yusuf ijodidan kuzatamiz: 1. Shoir o'lsa kim ham kuyunar deysiz/ Madhiyaboz hozir suvarakdan ko'p. ("Xavotir") 2. Men shoir emas, men nazmboz kosib/ She'rim shuhratimga emas munosib. ("Yalpiz") 3. Eslamasa nima, men bir to'pori/ Qishloqi so'zbozni, osmon yiqilmas. ("Ertak")

Muhammad Yusuf ijodidan olingan mazkur misollardagi madhiyaboz, nazmboz, so'zboz muallif nutqi neologizmlari safsataboz, qimorboz, masxaraboz kabi so'zlar qolipi asosida yuzaga kelgan, deyish mumkin. Ularning ma'no ifodasi quyidagicha:

madhiyaboz – misrada salbiy ma'no ifodasi uchun qo'llangan bo'lib, quruq gap sotishni yoqtiradigan, yolg'on-yashiq va'dalar beradigan, soxta vatanparvar shaxs ma'no ifodasiga ega.

so'zboz/ nazmboz – so'z va uning turli shakllari, ma'no ifodalarini yuzaga chiqarishga usta, kinoyali, tagma'nolar yarata oladigan, til sezgirligi yuqori bo'lgan shaxs. She'rda mazkur so'zlar salbiy ma'no ifodasi (kinoya) uchun ishlatilgan.

-furus affiksi otlarga qo'shilib, asosdan anglashilgan predmetni sotish bilan shug'ullanuvchi shaxsni bildiruvchi ot (gulfurush, do'ppifurush) lar yasaydi. Mazkur affiks bilan yuzaga kelgan muallif nutqi so'zlari salbiy ma'no ifodasi uchun qo'llanganini ko'rdik: Bahor so'rab kelsa jamolingizni/ Shudring yo'qlab rayhon shoxida sizni/ Bir o'y qiynamasmi gohida sizni – Nafro'z furushlar? (M.Yusuf, "Sumalak")

navro'z furush – milliy qadriyatlar, ma'naviyat, urf-odatlar, tarix toptalgan bir davrda – sho'ro davrida xalq orasidan chiqqan xoin, sotqin, yuzsizlarning umumlashma obrazi hisoblanadi. She'rda ushbu so'z ko'chma ma'noda qo'llangan.

Xuddi shu kabi holat, ya'ni -furus affiksi bilan hosil bo'lgan neologizm Usmon Azim she'riyatida ham mavjud: Ustozim deganing she'rfurus chiqsa/ Suyganim deganing erfurus chiqsa/ Podshohim deganing elfurus chiqsa – Chidagin bolam-a, chidagin. ("Baxshiyona qo'shiqlar") Kuyunchaklik bilan bitilgan mazkur she'rda she'rfurus, erfurus, elfurus kabi nutqiy birliklar barcha razilliklardan tonmaydigan, yomon xulq, illatlar girdobiga tushib qolgan kishilar; xoin, iymon-e'tiqodsiz, sadoqatsiz kimsalar tarzidagi ma'no umumlashmasiga ega. Misollardagi nutqiy yasalmalar vatanfurush qolipi asosida yuzaga kelgan va o'zaro nutqiy sinonimik qatorni vujudga keltirgan. Navro'z furush, elfurus, she'rfurus, erfurus so'zlari bosh so'z, ya'ni vatanfurush so'zi atrofida birlashadi.

-goh affiksi asosdan anglashilgan voqea-hodisa

bilan bog'langan o'rin bildiruvchi otlar yasaydi. Usmon Azim ijodidan kuzatamiz: 1. Kurashlarda garchi yondim/ Shukur, vijdon beyamoq/ Chizavergin imonimni: Imongoh – yurak oppoq. ("Maqsud Shyxzoda") 2. Zulmatgoh xonaning ichida, yorim/ Endi sezavergin o'zingni tobon. ("Men yoqman...")

imongoh – imon/iymon so'zi asosida yuzaga kelgan bo'lib, imongoh e'tiqod, ishonch, vijdon maskani – O'loh qarorgohi hisoblangan inson qalbini anglatadi. Shoir she'rda o'z yuragi, ko'nglini imongoh deya ta'riflaydi.

zulmatgoh – zulmat so'zi o'z ma'nosida qorong'ulik, zim-ziyo, tim qorong'ulik ma'no ifodasiga ega bo'lib, zulmatgoh so'zi bilan xuddi shu holat nazarda tutilgan. She'riy parchada "zulmatgoh xona" birikmasi ko'chma ma'noda baxtsizlik, judolik xonasi ma'nolariga ega.

– iy/viy affiksi otlardan xoslik, taalluqlilik ma'nosini anglatuvchi nisbiy sifatlar yasaydi. Masalan: Osmoniy orzular, yulduzlar qadar/ Bari ishqiy erur, barisi ezgu. Farida Afro'zning "Qiziq yashayman men" nomli she'ridan olingan bu misrada osmoniy so'zi "osmon qadar, yulduzlarcha orzular" – buyuk maqsadlar, olamshumul orzu-istaklar ma'no ifodasini anglatib, osmoniy so'zi ham holat, ham miqdor ma'nosini bildirmoqda.

– **kor affiksi** kasb egasi, mutaxassislik, mashg'ulot bilan bog'liq shaxs oti, asosdan anglashilgan narsani ekuvchi shaxs oti hamda o'xshashlik, xususiyat, holat ma'nolarini ifodalovchi sifat yasaydi: Cheksizlikdan nari yana cheksizlik/ Faqat biri – muzkor, biri – olovkor. ("Qush haqida ballada") Ma'lumki, Usmon Azim she'riyatida yangi so'zlar, yangi topilmalar ko'p uchraydi. Mazkur misolda favqulodda hosil qilingan muzkor, olovkor nutqiy birliklari obrazli ifodalari kitobxonni o'ziga jalb etadi, muayyan bir voqelik haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi. Muzkor va olovkor so'zlari antiteza usulini yuzaga keltirgan.

muzkor – forsha -kor (ekmoq) affiksi ma'nosi asosida yuzaga kelgan; yovuzlik undiruvchi, tarqatuvchi shaxs. **Olovkor** – yaxshilik, ezgulik ramzi. She'rda mazkur so'zlar ko'chma ma'noda qo'llangan. Yana bir misol: Surat parchasini yerdan ko'tardim/ Bir ko'z boqar edi menga alamkor. ("Surat parchasi haqida doston")

alamkor – belgi ifodalovchi so'z bo'lib, alami so'zi bilan ma'nodoshlik hosil qiladi. Alamkor boqmoq birikmasi dard-alami, og'riqli, azobli holda qaramoq holatini ifodalaydi.

–lash affiksi otlarga qo'shilib asosdan anglashilgan tushuncha bilan bog'liq harakatni bajarish ma'nosidagi fe'llar yasaydi. Farida Afro'z ijodidan: 1. Tashna dilman/ daryolashaylik/ Ko'ngil ochib, dunyolashaylik/ Har lahzada diydoriashaylik/

Siz yonimda qoling, azizim. ("Ko'ngil dog'i") 2. Abadiy lol tog'lar tilla shdi/ Qizil tan-u oqlar

dillashdi/ Yakka-yakka toqlar sirlashdi/ Tarqoq elim, jam bo'l, bag'ring och. ("Turon zamin") Ushbu she'riy parchalarda [ot+lash] qolipi hosilalari sifatida daryolashmoq, dunyolashmoq, diydorlashmoq, tillashmoq, dillashmoq kabilar she'r qofiyasi, ritmi, shakl va mazmunini ta'minlovchi so'zlar sifatida o'rinli qo'llangan. Diydorlashmoq, tillashmoq so'zlari lug'aviy (lug'atlarda o'z ma'nosiga ega) so'zlar, daryolashmoq, dunyolashmoq, dillashmoq kabilar esa nutqiy yasama so'zlar sanaladi. Lug'atlarda ifodaga ega emas.

daryolashmoq – holat ma'nosini ifoda etib, she'rda jo'shqinlik, to'lib-toshgan holat ma'no ifodasini anglatadi.

Dunyolashmoq – holat ma'nosini ifoda etib, uzoq diydorlashmoq, sirlashmoq, jon do'st tarzda fikr almashmoq tarzidagi ma'nolarni ifodalaydi.

dillashmoq – holat ma'nosidagi so'z bo'lib, kishining ichki ruhiy dunyosi, his-tuyg'ularini; kimsaning dard-u alamlari, hasratlariga sherik bo'la olish holatini anglatadi.

Daryolashmoq, do'stlashmoq, dillashmoq nutqiy yasama so'zlari kishining ma'naviy, ruhiy olami, hayotiy faoliyati, olamga munosabatini ham ifoda eta oladi. Kuzatishlar ko'rsatadiki, muallif nutqi neologizmlarini hosil bo'lishida [ot+la/lan/lash], [ot+kor], [ot+dosh], [ot+zor], [ot+furush], [ot+goh], [ot+boz], [ot+siz], [ot+furush] so'z yasash modellari nisbatan faol ishtirok etadi. Bunda so'z yasash asosi, odatda, narsa/ shaxs/ o'rin-makon/ mavhum otlar bo'lib keladi.

Muallif nutqi neologizmlari kompozitsiya usulida ham yuzaga keladi. Qo'shma shakldagi muallif nutqi neologizmlarini yaratishda Muhammad Yusuf ijodi peshqadamlik qiladi. Ayrim misollarni kuzatamiz: Qadim O'zbekmomo kuyi yodimda/ Yodimda chechaklar kulgan chambili. She'rdagi o'zbekmomo shaxs oti o'zbek ayollarining o'tmishdagi umumlashma obrazi bo'lib, qo'shma so'z tarkibidagi momo so'zi "hurmatli, ko'pni ko'rgan, e'zoz-e'tiborli ayol" ma'no ifodasiga ega bo'lib kelgan. Yana bir misol: She'riyat bu qadim buyuk so'qmoq ekan/ Kiyikso'qmoq ekan, kiyikso'qmoq ekan. ("She'riyat") Shoir she'riyat yo'li mushkulligini, hamma ham bu yo'ldan yura olmasligini uni kiyikso'qmoqqa qiyoslashi bilan ifoda etadi. O'z o'rnida topib aytilgan ushbu obrazli tasvir to'laqonli estetik vazifa bajargan. Yana bir misol: Muhabbatim, qaydasan, qalb ardog'im/ Jayronko'zim, qirlarga qolgan ohim. ("Muhabbat") She'rda jayronko'z individual nutq neologizmi muhabbat so'zining sifatlovchisi bo'lib kelgan.

Tahlilga tortilgan misollardagi o'zbekmomo, kiyikso'qmoq, jayronko'z kabilarning izohli lug'atlarda[7] o'z ifodasiga ega emasligi ham ularning muallif neologizmlari bo'la olishi dalili

bo'la oladi. Shoir ijodini kuzatar ekanmiz, unda yolg'izbosh, tillabarmoq, kulko'rpa, yo'lbarsyurak, sirtlonpanja, kiyiknigoh, shertirnoq, boboyurt va h.k. qo'shma shakldagi nutqiy yasama so'zlarga duch kelamiz.

Qo'shma shakldagi muallif nutqi neologizmlari, odatda, ot+ot qolipi asosida yuzaga kelgan bo'lib, predmetlik hamda belgi-xususiyat ma'no ifodalarini bildirishi bilan xarakterlanadi.

Usmon Azim ijodi bilan bog'liq muallif nutqi takror so'zlari sifatida: Ko'ngilchan yomg'irlar jim-jim yog'adi – Go'yo sen-u mening yomg'irim kabi. ("Endi u ko'chaga sira bormayman") Erka-erka aldoqqa/ Konikaver, jonivor. ("Gullar hidin ufurar") Suruv-suruv qo'ylar qoladi/ Uyur-uyur otlar yaylovda... ("Baxshiyona qo'shiqlar") Maysalarday yashar olamda/ Ayyor-ayyor ishlardan basir. ("Yaxshi odam") Odamlar ko'zida/ Yosh tizim-tizim. ("Odamlar") Shoir bir she'rda balo-bad tarzidagi favqulodda juft so'zni yaratadi: 1. Qochmay elatning tanti-mardlari/ Kelsa ham do'zaxning balo-badlari kabilar kuzatiladi.

Iboralarning yangicha ko'rinishlari (qayta ishlangan, tarkibiga yangi birliklar kiritilgan, tarkibi qisqartirilgan va b.) badiiy adabiyotda keng kuzatiladi[6,36]. Misollarni kuzatamiz: 1. Muhammad Yusuf ijodidan: *Joningga jon bo'lmayman-u, sevaman...* ("Muhabbat"), Qalinga tuyam ham tushib qolgan yo'q. ("Sodda Muhammadman...") Shaytonning xizmatin qilishar bari!.. ("Menday g'aribni ham ko'rolmaslar bor") *O'z qo'lingda endi qushing, o'zing ovla.* ("Tilak"); Usmon Azim ijodidan: *Mening izzatimni qorasan loyga.* ("Ertak"), *Bosar – qalbm tortadi mayda.* ("To'yganmidim shodlikni ichib"); Farida Afro'z ijodidan: *Jonimni cho'qiydi bir mayl.* ("Har holda"), *Chang tegmas iymoningga.* ("Bolam")

Xulosa. Bilamizki, o'zbek tili lug'at qatlamining boyishida ijodkorlarning o'rni katta. Ular yaratgan so'z va iboralar, tasvirlar evaziga lug'at fondi boyib boradi. Albatta, lug'atlar nutqiy hosilalarni emas, lug'aviy birliklarni qamrab oladi. Biroq har qanday lug'aviy birlikning "dunyoga kelishi" nutq bosqichi bilan belgilanadi. Shunday ekan, muallif nutqi neologizmlari vaqt o'tib, lug'aviy birliklarga aylanib lug'atlar uchun material bo'lib xizmat qila oladi.

Xullas, iste'dodli shoir Usmon Azim so'zlari bilan obrazli tarzda aytganda „so'zlarning bemiqdor jarangi bor“. Mazkur bemiqdor, jilvakor ranglar matnda yuz ko'rsatadi, to'g'rirog'i, iste'dodli ijodkor mehnati evaziga namoyon bo'ladi. Mualliflik neologizmlari so'zning shaklan va mazmunan tubdan yangicha nutqiy (hosila) ma'nosi sanalib, badiiy, poetik nutqning yuzaga kelishida alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Миртожиев М.М. Ўзбек тили семасиологияси. –Т.: “Мумтоз сўз”, 2010.
2. Тошалиева С.Н. Ўзбек тилида окказионал сўз ясалиши. Филол. фанлари номз. ... дис. автореф. –Т., 1998.
3. Турсунов У. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Олий ўқув юртлари филология факультетлари талабалари учун дарслик. –Т.: “Ўзбекистон”, 1992.
4. Умирова С. Ўзбек шеъриятида лингвистик воситалар ва поэтик индивидуаллик (У.Азим шеърияти мисолида). Филол. фан. номз. ...дис. автореф. – Самарқанд, 2019.
5. Шодиева Д.Ш. Муҳаммад Юсуф шеърияти лингвопоэтикаси: Филол.фан.номз. ...дис. автореф. – Т., 2007.
6. Юлдашев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. Филол. фан.док. ...дис. автореф. – Т., 2009.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. –Т.: “Ўзб. Мил. Энцикл.”, 2006–2008.
8. Қосимова М.Б. Бадиий нутқ индивидуаллигининг лингвистик хусусиятлари (Тоғай Мурод асарлари асосида). Филол. фан. номз. ...дис.автореф. – Т., 2007.
9. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. –Т.: ЎзМЭ Давлат нашриёти, 2002.